

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
instituti direktori**

N. M. Egamberdiyeva



“26” avguest

2024-yil

**19.00.06 – “Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi”
ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihoni dasturi**

Toshkent - 2024

Ushbu dastur psixologiya ixtisosligi bo'yicha bo'lgan doktorant(DSc), tayanch doktorant (PhD) larga mo'ljallangan bo'lib, unda inson har bir bosqichida biologik, kognitiv, psixoemotsional va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faoliyat va yosh inqirozlari haqida bilimlarga, rivojlanish qonuniyatlari va mexanizmlari haqida tasavvurlarga, rivojlanish va pedagogik psixologiyaning asosiy metodologik prinsiplari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari, ta'lim jarayonida taxlim sub'ektlarining yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishning psixologik-pedagogik va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari haqida bilimlar bilan bir qatorda ma'lum ko'nikma va malakalarni ham egallashlari uchun yo'naltirilgan.

Tuzuvchi:

D.I.Ilxamova

psixologiya fanlari doktori (DSc),dotsent

Taqrizchi:

N.Mullabayeva

psixologiya fanlari doktori (DSc),dotsent

Mazkur dastur "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kengashining 2024-yil 27-avgustdagい 5-sonli majlisida tasdiqlangan.

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2020-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzurida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi 367-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlari qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishslashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruva tizimini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 31-martdagi 145-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Mamlakatimizdagi mavjud barcha o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri, ilmiy asosda tashkil etish uchun bu jarayonning o‘ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, turli yosh davrlaridagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim

bo‘ladi. Bu borada, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya muhim o‘rin egallaydi.

19.00.06 –“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” fani bo‘yicha tuzilgan mazkur dastur psixologik-pedagogik vaziyatlarni samarali rejalashtira olish, aqliy va shaxsiy taraqqiyot bilimlarini unumli egallah, turli yosh davrlarida psixik tarakqiyot qonunlarini to‘g‘ri anglab, psixodiagnostik tadqiqotlar olib borish, o‘quvchilarga individual yondasha bilish, bola psixikasi taraqqiyotida turli noxush holatlarning oldini ola bilish, ota-onalar, o‘z hamkasblari va bolalar bilan to‘g‘ri muomalada bo‘lish kabi muammolarini ijobiy hal etishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Yosh davrlari va pedagogik psixologiya fani psixologiya ilmining muhim tarmog‘i sifatida, inson psixik jarayonlarining ontogenezdagi psixologik xususiyatlarini va odam shaxsining ta’lim-tarbiya sharoitida psixik taraqqiyotining har bir davriga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi sohadir. Bu fan kirish imtihoni dasturi ikki bo‘limdan iborat: “Yosh davrlari psixologiyasi” va “Pedagogik psixologiya”.

Pedagogik-psixologiya bo‘limida - ta’lim va taraqqiyotning o‘zaro bog‘liqligi, ta’limning tuzilishi, o‘quvchilarning o‘qish va bilish faoliyatini shakllantirish hamda tarbiya psixologiyasining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi shaxsini barkamol inson sifatida shakllantirish kabi muhim muammolar o‘z aksini topgan. Bunda, o‘quv-tarbiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, zamonaviy ta’lim-tarbiya nazariyasining vazifalari, uning etnopsixologik xususiyatlari hamda ular tomonidan yoritilgan shaxs taraqqiyotini boshqarish imkoniyatlari yoritilgan.

Yosh davrlari psixologiyasi bo‘limida ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiyligini qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hamda psixologik xususiyatlarini o‘rganish masalalari yoritilgan.

Mazkur dastur 19.00.06 –“Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” ixtisosligi bo‘yicha ixtisoslik imtihonlarini topshiruvchi tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning bilim darajasini mukammal sinovdan o‘tkazish imkonini yaratadi.

ASOSIY QISM

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, VAZIFALARI, METODLARI

Rivojlanish psixologiyasi fani predmeti, vazifalari va ahamiyati. Rivojlanish psixologiyasining fan sifatida shakllanish tarixi. Inson rivojlanishini tushuntirishga oid nazariy-metodologik manbalar. Biogenetik yondashuv (S.Xoll, Z.Freyd, A.Gezell, K.Byuler). A.Adler – yetishmovchilik kompleksi va siboing pozitsiyasi haqida qarashlar. Shaxs taraqqiyotini tushuntirishga sotsionegechetik yondashuvlar (Dj.Lokk). E.Erikson va epigenetik nazariya. Bolalik davrini psixoanaliz nuqtai nazaridan utushntirishga intilishlar (A.Freyd, D.Vinnikot, Dj.Boulbi, M.Klayn). Bixevoirizm. Konvergensiya nazariyasi (V.Shtern). Normativ yondashuv. (Bine, A.Gezell, L.Termen). Madaniy-tarixiy konsepsiya (L.S.Vigotskiy).M.Mid nazariyasi. U.Bronfenbrenner ekologik tizimi. Inson rivojlanishini tushuntirishga kognitiv yondashuv. Shaxs taraqqiyotini harakatlantiruvchi kuchlar. Yosh inqirozları muammosi. Axloqiy rivojlanish nazariyasi (Kolberg).

PERINATAL PSIXOLOGIYA, CHAQALOQLIK, GO'DAKLIK, ILK BOLALIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Perinatal psixologiyaning fan sifatida shakllanish tarixi va ahamiyati. Perinatal psixologiya bo'yicha tadqiqotlar sharhi. Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati. Chaqaloqlik davri inqirozi.

Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari. Go'daklik davrida kattalar bilan faol aloqaga kirishish ehtiyojining boshlanishi. Go'dakning predmetlar bilan faoliyati. Go'daklik davri inqirozi: sabablari, simptomlari, yangi tuzilmalar. Avtonom nutq.

Ilk bolalik davridagi psixik rivojlanishning o'ziga xosligi. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faoliyat. 3 yosh inqirozi: kelib chiqish sabablari, simptomlari, yangi tuzilmalar. Bolada o'zini o'zi anglashning yuzaga kelishi. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi.

MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALAR PSIXOLOGIYASI. KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI

Maktabgacha yosh davri psixologiyasiga umumiy tavsif. Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, yetakchi faoliyat. O'yin - maktabgacha yoshdagı bolalarining yetakchi faoliyati sifatida. O'yinning ijtimoiy tarixiy ahamiyati. Maktabga tayyorgarlik muammosi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar psixikasi. Ta'limga psixologik tayyorgarlik. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar faoliyati. Kichik mакtab

yoshidagi o‘quvchilar bilish jarayonlarining o‘ziga xosligi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining o‘quv faoliyati va shaxsining shakllanishi. Yetakchi faoliyat va faoliyatning asosiy turlari. 7 yosh inqirozi. Yangi tuzilmalar.

O‘SMIRLAR PSIXOLOGIYASI. O‘SPIRINLAR PSIXOLOGIYASI

O‘smirlilik davrining fiziologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari. O‘smirlilik davrida rivojlanishni tushuntirishga bo‘lgan yondashuvlar. (S.Xoll, A.Gezell, A.Freyd). O‘smirlilik davri xususiyatlarini sobiq sovet psixologiyasi va mamlakatimiz olimlari tomonidan o‘rganilishi. O‘smirlilik davri inqirozi: yuzaga kelish sabablari, simptomlari, yangi tuzilmalar. O‘smirlilik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishi. O‘spirinlik davrining umumiy psixologik xususiyatlari. O‘spirinlik davri asosiy vazifalari. O‘spirinlik davri inqirozi: sabablari, simptomlari, muammolar. Kasb tanlash. Kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillar.

YETUKLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yetuklik davri psixologiyasi. Yetuklik davrining bosqichlari. Yetuklik davrining birinchi bosqichida shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlar. Yetuklik davridagi ijodiy faoliyat. Yetuklik davrining ikkinchi bosqichidagi shaxsning psixologik xususiyatlari. Yetuklik davri inqirozi.

KEKSALIK VA QARILIK DAVRI PSIXOLOGIYASI. UZOQ UMR KO‘RUVCHILAR PSIXOLOGIYASI

Gerontopsixologiya fani predmeti va ahamiyati. Keksalik davrining psixologik xususiyatlari va asoslari. Keksayish davridagi kishilarda intellektni o‘lhash va baholash. Ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashishning inson psixikasiga ta’siri. Keksayishda bilish jarayonlarining o‘zgarishi. Qariyalar uyidagi odamlar psixologiyasi va keksalik psixologiyasi. Yosh davri bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy o‘zgarishlarni psixologik mexanizmlari. Geteroxronik rivojlanish qonuniyatlarining o‘ziga xosligi. Keksalik patologiyasi. Faollikni saqlash omillari.

Uzoq umr ko‘rvuchilar va ularning psixologik xususiyatlari. Qarish davrida psixofiziologik o‘zgarishlar. Uzoq umr ko‘rvuchi odamlarda umumiy va ijodiy faollik ko‘rsatish imkoniyatlari. Uzoq umr ko‘rvuchilarda biologik o‘zgarishlar. Ijtimoiy faoliyat va jismoniy harakatlarning shaxs psixikasiga ta’siri. Uzoq umr ko‘rishning biologik va psixologik sabablari.

“PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA” BO‘LIMI

Pedagogik psixologiya fanining predmeti, vazifalari. Fan sifatida pedagogik psixologiya fanining vujudga kelishi, rivojlanish tarixi. Fanning rivojlanishiga hissa qo‘shtan olimlar. Pedagogik psixologiya fanining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari. Pedagogik psixologiya fanining ilmiy tadqiqot metodlari. Psixik taraqqiyot va ta’limning o‘zaro munosabati. Pedagogik psixologiya fanining O‘zbekistonda rivojlanishi.

Ta’lim va tarbiya psixologiyasi

O‘qitish va bilim berish jarayonining asosiy qirralari. O‘qitish nazariyalari. Ta’lim turlari. An’anaviy ta’lim. Muammoli ta’lim. Dasturlashtirilgan ta’lim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Tarbiya psixologiyasi. Tarbiya nazariyalari. Tarbiya usullari va vositalari. Tarbiyasi qiyinlik muammosi.

Pedagog psixologiyasi

Pedagog psixologiyasi. Pedagog shaxsiga qo‘yiladigan asosiy psixologik talablar. O‘qituvchi shaxsi psixologiyasi. Pedagogik qobiliyatlar. Pedagog kasbiy kompetentligi. Kasbiy yonish. Kasbiy yonish profilaktikasi. Kasbiy yonishda psixologik yordam ko‘rsatish usullari.

FOYDALANILADIGAN DARSLIKLER VA O'QUV QO'LLANMALAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6705763>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6704824>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-401-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6704819>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-son qarori <https://lex.uz/docs/6705734>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-87-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5899498>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4850317>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini

tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-son qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/-7061588>

12. 2022-yil 1-martdagи “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-146-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-5884084>

13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

14. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 16-yanvar, № 11.

15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

16. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

17. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oly bahodir. 2-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

18. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

19. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416-b.

21. O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6679> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 31-martdagи 145-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/5932671>

Asosiy adabiyotlar

22. Фозиев Э.Ф. Онтогенез психологияси. Т., 2019.

23. Крайг Г. Психология развития. Санкт-Петербург, 2017. Davletshin M.G. Zamonaviy mакtab o‘qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998.

24. Карабанова О.А. Психология развития и возрастная психология. Конспект лекций. М., 2017.

25. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M. Yosh va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.
26. А. Социальная педагогическая психология. М., 2018.
27. Талызина Н. Ф. Педагогическая психология: Учеб. пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений. - М.: Издательский центр «Академия», 1998. - 288 с.
28. Зимняя И.А. Педагогическая психология. Учебник для вузов/ изд. второе, доп., испр. и перераб. Москва: Издательская корпорация «Логос», 2000.
29. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). Москва. «Дело», 1994.
30. Маркова А.К. Психология труда учителя. Москва. 1993.
31. Реан А.А. Психология педагогической деятельности. Ижевск, 1994.

Internet resurslari

32. <http://textshare.tsx.org>
33. <http://www.mgimo.ru/filesserver/>
34. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
35. http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_14.htm
36. <http://www.voppsy.ru>
37. <http://flogiston.ru/arch>
38. <http://psychol.ras.ru>
39. www.moiti.uz

Baholash mezonlari

Kirish sinovi og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo‘yiladigan talablar
86-100	Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergen. Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71-85	Savolning mohiyatini tushungan. Javobni yoritib bera olgan. Amaliy misollar keltirilgan. Tasavvurga ega. Qisqacha xulosa bergen. Fikrlarni sodda bayon etgan.
55-70	Savol mohiyatini tushungan. Javob yoritilgan, qisqa shaklda. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan.
0-54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan, yoki umuman yoritilmagan. Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas.